

**O‘ZBEKISTONNING DAVLAT BUDJETI, DAROMADLARI
VA XARAJATLARI (2023-2024 yillar misolida)**

H.A.Mamarasulova – iqtidorli talaba.

Y.P.Urunbayeva – (PhD) i.f.f.d., dotsent.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Абстракт: В статье анализируется структура доходов и расходов Государственного бюджета Республики Узбекистан на 2023 и 2024 годы, их состав и экономическое значение. Данная информация получена из надежных источников. В статье также анализируется финансовая устойчивость страны, социальные и экономические направления бюджетной политики на основе параметров государственного бюджета.

Ключевые слова: государство, бюджет, доходы, расходы, дефицит, фискальная политика, экономика.

Abstract: This article analyzes the structure of revenues and expenditures of the state budget of the Republic of Uzbekistan for 2023 and 2024, their composition and economic significance, based on reliable sources. The article also analyzes the country's financial stability, social and economic directions of budget policy based on the parameters of the state budget.

Keywords: state, budget, income, expenditure, deficit, fiscal policy, economy.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari mamlakat Yalpi ichki mahsulotini taqsimlash va qayta taqsimlashning umumiy jarayonidagi muhim tarkibiy elementlardan biri hisoblanadi. Ular oraliq iqtisodiy xarakterga ega bo‘lib, yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan daromadlar hamda jamg‘armalarning ma’lum qismini davlat byudjetiga yo‘naltirish orqali shakllanadi. Byudjet daromadlarining moddiy-buyumlashgan mazmunini davlat tasarrufiga tushgan pul mablag‘lari tashkil etadi. Ushbu moliyaviy kategoriyaning ifodalanish



shakli byudjetga tushadigan turli xil soliqlar, majburiy to'lovlar, yig'imlar, bojxona to'lovlari hamda boshqa ajratmalar orqali namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi ma'lumotlarni ijrosi maqsadida 2023-yilning 16-martida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet xarajatlarini optimallashtirish, byudjet intizomi va ochiqligini kuchaytirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 3-moddasida davlat budjeti tushunchasiga aniq ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, davlat budjeti — bu davlatning asosiy vazifalari va funksiyalarini moliyaviy jihatdan ta'minlash uchun mo'ljallangan markazlashtirilgan pul jamg'armasidir.[1] Mazkur ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, budjet iqtisodiy kategoriya sifatida davlatning bir yillik daromadlari va xarajatlarini o'zida aks ettiradi. Moliya yili doirasida ushbu daromadlar va xarajatlar oldindan rejalashtiriladi hamda qonuniy asosda tasdiqlanadi. Ularning amalda bajarilishi esa budjet munosabatlarini vujudga keltiradi va moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismini tashkil etadi.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Davlatning fiskal siyosati iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasiga ta'sirini muvofiqlashtirishi zarur. Chunki, budjet faqat mablag'larni markazlashtirish, ularni to'plash, jamg'arishgina emas, balki to'plangan moliyaviy resurslarni oqilona sarflashni ham o'zida ifodalaydi. Buning samaradorligi esa davlat budjetiing xarajalari tizimida o'zining ifodasini topadi.

Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilish uchun mo'ljallangan, aholining turmush darajasini ko'tarish uchun rejalashtirilgan, ijtimoiy vazifalarni bajarishga ajratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani taminlash kabi aniq maqsadlarga qaratilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Ushbu umumdavlat xarajatlari budjet orqali moliyalashtiriladi. Budjet tizimining barcha xarajatlari turli budjetlar o'rtasida taqsimlanadi, bu esa u yoki bu xarajadni muayyan budjetga kiritilishini anglatadi. Bu birinchidan moliyalashtirilayotgan muassasaning respublika va mahalliy organlarga qarashli



bo'lishi ,ikkinchidan moliyalashtiriladigan tadbirning ahamiyatidan kelib chiqadi. Davlat byudjeti va budjetlararo munosabatlar sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichi sifatida 2023-yil 30-dekabrda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi. Unda joriy yilda iqtisodiyotni rivojlantirish, davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy yo'naltirilganlikni saqlab qolish, aholining ehtiyojmand qatlamini qo'llab-quvvatlash, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, budjet intizomi va mablag'lardan oqilona foydalanish bo'yicha quyidagi muhim islohotlarning amalga oshirilishi ahamiyatli deb topildi:

1. soliq-budjet siyosatiga strategik yondashuvni tatbiq etish maqsadida o'rta muddatli budjet asoslarini ishlab chiqish hamda yillik budjetni shakllantirishning yangi “natijaga yo'naltirilgan budjet” tizimini joriy etish;
2. makrofiskal prognozlar ishonchliligini ta'minlash bo'yicha institutsional salohiyatni va budjet jarayoni ishtirokchilarining mas'uliyatini oshirish;
3. budjet mablag'larini taqsimlovchilar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining budjet sohasidagi vakolatlarini va hisobdorligini oshirish hamda ularning mas'uliyatini kuchaytirish;
4. fiskal tavakkalchiliklarni baholash, moliyaviy aktivlar va majburiyatlar hisobini yuritish hamda ularni samarali boshqarish tizimini joriy etish;
5. budjet hisobi standartlarini birxillashtirish, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy intizomni mustahkamlash;
6. budjet ma'lumotlarining ochiqligi, to'liqligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash;
7. budjet jarayoni ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.[2]

Tahlil va natijalar. Quyidagi jadvalda O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromad va xarajatlari 2023-2024 yillar oralig'idagi ko'rsatkichlarining tahlilini ko'rib chiqamiz.



**O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti Daromadlarining 2023-2024
yillar Oralig'idagi Tahlili.**

1-jadval.

Ko'rsatkichlar	2023	2023	2024	2024
	1-chorak	yillik	1-chorak	yillik
Daromadlar	47 288,6	231 721,3	52 620,6	274 423
Bevosita soliqlar	16 699,9	73 103,6	18 770,7	90 833
Foyda solig'i	9 521,2	40 778,9	10 431,5	52 620
Bilvosita soliqlar	18 425,1	83 325,8	18 193,0	88 341
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	6 622,4	29 917,4	7 744,9	35 384
Aylanmadan olinadigan soliqlar	556,4	2 407,3	594,3	2 829
Qo'shilgan qiymat solig'i	13 218,3	57 885,3	12 267,0	59 280
Aksiz soliqlar	3 486,1	15 834,4	3 729,8	19 060
Bojxona boji	1 720,6	9 606,1	2 196,2	10 001
Resurs to'lovlari va mulk solig'i	6 491,0	28 079,5	8 317,3	36 363
Mol-mulk solig'i	1 316,2	5097,7	1 718,0	6 805
Yer solig'i	1 425,1	6 890,1	1 853,4	8 216
Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	3 543,8	15 300,3	4 506,4	20 170
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	205,8	791,4	239,5	1 173
Boshqa daromadlar	5 672,6	47 212,5	7 339,6	58 886

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2023 va 2024 yillardagi tarkibi va dinamikasi tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur yillarda davlat budjetining daromad bazasi sezilarli darajada kengaygan. Jumladan, 2023 yilning yillik yakunlariga ko'ra daromadlar hajmi 231 721,3 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa,



2024 yil uchun ushbu ko'rsatkich 274 423 mlrd so'mga yetgan. Bu esa 18,4 foizlik o'sishni anglatadi.

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar 2023 yilda 73 103,6 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda ular 90 833 mlrd so'mga yetib, 24,3 foizga oshgan. Xususan, foyda solig'i tushumlari 40 778,9 mlrd so'mdan 52 620 mlrd so'mga oshgan.

Bilvosita soliqlar bo'yicha esa nisbatan barqaror o'sish kuzatilgan: 2023 yildagi 83 325,8 mlrd so'mlik tushum 2024 yilda 88 341 mlrd so'mga yetgan. Bu yerda QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) salbiy o'zgarish ko'rsatmoqda — 2023 yildagi 57 885,3 mlrd so'mdan 2024 yilda 59 280 mlrd so'mga chiqqan bo'lsa-da, 1-chorakda pasayish kuzatilgan (13 218,3 → 12 267,0 mlrd so'm).

Resurs to'lovlari va mulk soliqlari umumiy hajmda ham muhim o'sish ko'rsatgan. 2023 yilda 28 079,5 mlrd so'mni tashkil etgan ushbu daromadlar 2024 yilda 36 363 mlrd so'mga yetgan. Ayniqsa, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq 2023 yildagi 15 300,3 mlrd so'mdan 2024 yilda 20 170 mlrd so'mga oshgan.

Boshqa daromadlar ham o'sib, 47 212,5 mlrd so'mdan 58 886 mlrd so'mga yetgan, bu esa 25% dan ortiq o'sishni anglatadi. [3,4]

2023–2024 Yillarda O'zbekiston Respublikasi Davlat Budjeti Xarajatlarining Tahlili

2-jadval

Ko'rsatkichlar	2023	2023	2024	2024
	1-chorak	yillik	1-chorak	yillik
Ijtimoiy xarajatlar	28 241,5	137 246,8	33 919,7	152 347,6
Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari	26 369,2	122 348,7	30 357,8	134 666,6
Pensiya jamg'armasiga transfertlar	1 725,0	13 797,5	3 300,0	16 270,6
Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	552,3	2 208,0	261,9	1 410,4



Iqtisodiy xarajatlar	11 318,3	42 926,9	13 500,3	38 417,0
Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari	2 805,0	29 581,6	3 397,7	28 482,2
Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari	3 012,8	14 618,4	3 486,7	16 306,3
Sud organlarini saqlash xarajatlari	297,2	1 295,4	355,1	1 622,9
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamg'armalari	301,3	1 720,4	388,7	2 170,1
Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-qo'vvatlash xarajatlari va o'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlari	63,3	326,8	376,3	1 323,3
Davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va qoplash xarajatlari	1 213,6	8 220,6	2 490,6	14 537,4
Boshqa xarajatlar	11 599,4	44 399,4	12 424,5	55 719,3
Jami	59 033,9	281 097,4	70 339,6	310 926,2

- Ijtimoiy xarajatlar 2024 yilning 1-choragida 33,919.7 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 20.11% o'sdi. Yillik hisobda esa, ijtimoiy xarajatlar 137,246.8 milliard so'mdan 152,347.6 milliard so'mga o'sdi, bu 11.02% lik o'sish sur'atini ko'rsatadi. Bu o'sish, mamlakatda ijtimoiy soha, aholini qo'llab-quvvatlash va pensiya tizimi kabi masalalarga ko'proq mablag' ajratilishi bilan bog'liq.



- Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari 2024 yilning 1-choragida 30,357.8 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 15.13% o'sdi. Yillik hisobda esa bu xarajatlar 122,348.7 milliard so'mdan 134,666.6 milliard so'mga o'sdi, bu 10.07% lik o'sish sur'atini ko'rsatadi. Bu o'sish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlariga bo'lgan ehtiyojning oshganligini ko'rsatadi.

- Pensiya jamg'armasiga ajratilgan transfertlar 2024 yilning 1-choragida 3,300.0 milliard so'mni tashkil qilib, 91.30% lik katta o'sishni ko'rsatdi. Yillik hisobda esa 13,797.5 milliard so'mdan 16,270.6 milliard so'mga o'sdi, bu 17.87% o'sish sur'atini ko'rsatadi. Pensiya to'lovlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi ushbu o'sishga olib kelgan.

- Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlari uchun ajratilgan xarajatlar 2024 yilning 1-choragida 261.9 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 52.58% kamaygan. Bu kamayish, uy-joy qurilishiga ajratilgan mablag'larning kamayganini ko'rsatadi. Yillik hisobda esa, xarajatlar 2,208.0 milliard so'mdan 1,410.4 milliard so'mga kamaydi, bu 36.22% pasayishni ko'rsatadi.

- Iqtisodiy xarajatlar 2024 yilning 1-choragida 13,500.3 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 19.28% o'sdi. Yillik hisobda esa, iqtisodiy xarajatlar 42,926.9 milliard so'mdan 38,417.0 milliard so'mga kamaydi, bu 10.62% pasayishni ko'rsatadi. Bu o'zgarish, iqtisodiy sektorga ajratiladigan mablag'larning kamayganini ko'rsatadi.

- Markazlashgan investitsiya loyihalari va hududlar infratuzilmalarini rivojlantirish xarajatlari 2024 yilning 1-choragida 3,397.7 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 21.13% o'sdi. Yillik hisobda esa, xarajatlar 29,581.6 milliard so'mdan 28,482.2 milliard so'mga kamaydi, bu 3.72% pasayishni ko'rsatadi. Bu o'zgarish, investitsiyalarga ajratilgan mablag'lar miqdorining kamayganligini anglatadi.

- Davlat boshqaruvi, adliya va prokuratura organlarini saqlash xarajatlari 2024 yilning 1-choragida 3,486.7 milliard so'mni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 15.73% o'sdi. Yillik hisobda esa, bu xarajatlar 14,618.4 milliard so'mdan 16,306.3 milliard so'mga o'sdi, bu 11.53% o'sish sur'atini ko'rsatadi.



- Sud organlarini saqlash xarajatlari 2024 yilning 1-choragida 355.1 milliard soʻmni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 19.48% oʻsdi. Yillik hisobda esa, xarajatlar 1,295.4 milliard soʻmdan 1,622.9 milliard soʻmga oʻsdi, bu 25.33% oʻsishni koʻrsatadi.

- Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar, shahar va tumanlar byudjetlarining zaxira jamgʻarmalari 2024 yilning 1-choragida 388.7 milliard soʻmni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 29.01% oʻsdi. Yillik hisobda esa, xarajatlar 1,720.4 milliard soʻmdan 2,170.1 milliard soʻmga oʻsdi, bu 26.16% oʻsishni koʻrsatadi.

- Davlat qarzlariga xizmat koʻrsatish va qoplash xarajatlari 2024 yilning 1-choragida 2,490.6 milliard soʻmni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 105.22% oʻsdi. Yillik hisobda esa, bu xarajatlar 8,220.6 milliard soʻmdan 14,537.4 milliard soʻmga oʻsdi, bu 77.3% oʻsishni koʻrsatadi. Bu oʻsish davlat qarzlarini qaytarish va xizmat koʻrsatish uchun ajratilgan mablagʻlarning oshganligini bildiradi.

- Boshqa xarajatlar 2024 yilning 1-choragida 12,424.5 milliard soʻmni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 7.11% oʻsdi. Yillik hisobda esa, bu xarajatlar 44,399.4 milliard soʻmdan 55,719.3 milliard soʻmga oʻsdi, bu 25.67% oʻsish surʼatini koʻrsatadi.

- 2024 yilning 1-choragida jami xarajatlar 70,339.6 milliard soʻmni tashkil qilib, 2023 yilning 1-choragiga nisbatan 19.15% oʻsdi. Yillik hisobda esa, jami xarajatlar 281,097.4 milliard soʻmdan 310,926.2 milliard soʻmga oʻsdi, bu 10.64% oʻsishni koʻrsatadi.[5]

2023 va 2024 yillar davomida ijtimoiy soha va aholini qoʻllab-quvvatlashga ajratilgan mablagʻlar aniq oʻsishni koʻrsatmoqda, ayniqsa pensiya jamgʻarmasiga ajratilgan mablagʻlar sezilarli darajada oshdi. Boshqa sohalarda ham oʻsish mavjud, ammo baʼzi xarajatlar, masalan, uy-joy bilan taʼminlash dasturlari uchun ajratilgan mablagʻlar kamaygan. Davlat qarzlarini xizmatining oʻsishi davlat moliyasining muhim qismiga aylanishi va unga koʻproq mablagʻ ajratilishi kerakligini koʻrsatadi.

Xulosa. Keltirilgan maʼlumotlardan shunday xulosaga kelish mumkin; Davlat budjeti ijrosining gʻaznachilik tizimini joriy etilishi natijasida keyingi yillarda davlat



budjeti pofitsit bilan ijro etilmoqda. Bunda rejalashtirilgan budjet xarajatlarini manzilli va maqsadli sarflanishini ta'minlanishi natijasida ta'minlanmoqda. 2023–2024-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti daromadlari va xarajatlaridagi dinamik o'zgarishlar fiskal siyosatning faol va maqsadli yuritilganini ko'rsatadi. Davlat moliyaviy boshqaruvidagi islohotlar fiskal barqarorlikni ta'minlash, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirishni kengaytirish hamda budjet mablag'laridan samarali foydalanish imkonini yaratdi.

Byudjet daromadlarining 14,7 foizga o'sishi va xarajatlarning 19,3 foizga ko'payishi iqtisodiy faollikning oshgani, soliqqa tortish bazasining kengaygani va ijtimoiy infratuzilma loyihalariga e'tibor kuchayganini anglatadi. Shu bilan birga, 2023-yilda qayd etilgan 23,8 trillion so'm miqdoridagi byudjet taqchilligi fiskal intizomni yanada mustahkamlash zaruratini ta'kidlaydi.

Kelgusida davlat moliyasini boshqarishning yanada ochiq, samarali va barqaror tizimini shakllantirish uchun soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, soliq imtiyozlarini maqbullashtirish, raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish hamda budjet mablag'larining manzilli va natijadorligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. УРУНБАЕВА, Ю. П., & ХАМДАМОВА, Н. А. (2024). ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, 7(9), 98-103.
2. УРУНБАЕВА, Ю. (2021). РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В ПОВЫШЕНИИ УРОВНЯ ЖИЗНИ. *IN LIBRARY*, 21(1), 19-22.
3. URUNBAEVA, Y. P., & QUDRATOVA, Z. M. (2025). THE GLOBAL IMPLEMENTATION OF THE GREEN ECONOMY AND ITS IMPACT ON SUSTAINABILITY. *EDUVISION: JOURNAL OF INNOVATIONS IN PEDAGOGY AND EDUCATIONAL ADVANCEMENTS*, 1(2), 312-321.



4. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2017). ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ. *ВЕСТНИК РЕГИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ» НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ. КАРАГАНДА*, (2), 16.
5. МУХАММЕДОВ, М. М., & УРУНБАЕВА, Ю. П. (2010). АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛЛАРИ ВА ОШИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *РИСОЛА. «ЗАРАФШАН*, 131.
6. УРИНБАЕВА, Ю. П., ҲИММАТОВА, Б. Б., & УРАЛОВ, Ш. А. (2019). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ЎРНИ. IN *МОЛОДОЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ* (PP. 472-475).
7. URUNBAYEVA, Y. P. (2019). THE ROLE OF THE SERVICE INDUSTRY IN THE FORMATION OF POSTINDUSTRIAL SOCIETY. IN *COLLOQUIUM-JOURNAL* (NO. 26-8, PP. 11-15). ГОЛОПРИСТАНСЬКИЙ МІСЬКРАЙОННИЙ ЦЕНТР ЗАЙНЯТОСТІ= ГОЛОПРИСТАНСКИЙ РАЙОННЫЙ ЦЕНТР ЗАНЯТОСТИ.
8. УРУНБАЕВА, Ю. П., НУРУЛЛАЕВА, Ш. И. К., ДАВЛАТОВА, Н. Б. К., ИСТАМОВ, Ш. А. У., & ОЧИЛОВА, Ю. Т. К. (2019). РОЛЬ УСЛУГ В РАЗВИТИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ. *ДОСТИЖЕНИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*, (7 (48)), 15-17.
9. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2019). THE DEVELOPMENT OF SERVICE SECTOR IS AN IMPORTANT FACTOR IN CREATING NEW JOBS AND ENSURING EMPLOYMENT. *ACADEMY*, (12 (51)), 32-38.
10. PIRNAZAROVNA, U. Y., & O'G'LI, A. S. H. (2019). THE ROLE OF TOURISM SERVICES ON RAISING THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION. *ВОПРОСЫ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*, (18 (65)), 27-30.
11. PIRNAZAROVNA, U. Y. (2020). THE ROLE OF TOURISM IN SHAPING THE QUALITY AND STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION. *ACADEMY*, (2 (53)), 13-15.
12. URINBOEVA, Y. P., KHASANOVNA, D. D., & SHODMONOVNA, S. C. (2021). THEORETICAL APPROACHES TO THE FORMATION OF LIVING



STANDARDS AND SERVICES OF THE POPULATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF TRENDS IN COMMERCE AND ECONOMICS*, 11(1).

13. PIRNAZAROVNA, U. Y., & BAKHODIROVICH, E. D. (2022). THE STANDARD OF LIVING OF THE POPULATION AND THE SERVICE SECTOR. *GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 10(4), 705-709.

14. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2023). РОЛЬ МАЛОГО БИЗНЕСА В РАЗВИТИИ СТРАНЫ. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 105-108.

15. УРУНБАЕВА, Ю. П. (2023). АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ОШИРИШДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ ЎРНИ. *FINLAND" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 14(1).